Olimpiada topshiriqlari
O‘zbek tili 11

1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. … egani yoki to‘ldiruvchini aniqlab, qanday?, qanaqa?, qaysi? so‘roqlariga javob bo‘ladi.

A) aniqlovchi B) hol
C) kesim D) hol va kesim

2. Sabab holi ishtirok etgan gapni belgilang.

A) Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur.
B) Dushman chorasizlikdan taslim bo‘ldi.
C) Olimjon orqada qoldi.
D) Kecha majlis bo‘ldi.

3. Quyidagi sinonimlar qatorida noto‘g‘ri so‘z qo‘llangan javobni belgilang.

A) ko‘p, talay, bisyor
B) xunuk, badbashara, aft
C) hur, ozod, erkin
D) xirpa, tullak, ayyor

4. Ikkinchi darajali bo‘laklarga nimalar kiradi?

A) ega, kesim
B) faqat kesim.
C) hol, kesim, ega
D) aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol

5. Qaysi javoblarda gap bo‘laklariga to‘g‘ri ajratilgan?

Aziza ertalab she’r yozadi.

A) ega, hol, to‘ldiruvchi, kesim
B) ega, kesim, to‘ldiruvchi, hol
C) hol, ega, to‘ldiruvchi, kesim
D) kesim, to‘ldiruvchi, hol, kesim

6. Quyidagi berilgan gapning turini aniqlang.

Sayohatga juda erta kelibsan.
A) Tasdiq gap
B) Inkor gap
C) Buyruq gap
D) Yig‘iq gap

7. Berilgan gapdagi sifatdoshni aniqlang.

Olimpiadaga qatnashuvchi talabalar jurnali yozildi.

A) olimpiadaga
B) qatnashuvchi
C) talabalar
D) yozildi

8. Bosh harf bilan yozish qoidasi amal qilib yozilgan birlikni aniqlang.

A) Davlat Soliq Qumitasi
B) Vazirlar Mahkamasi
C) Oliy Xo‘chalik Sudi
D) Adliya Vazirligi

9. Ot-kesim qatnashgan gapni belgilang.

A) Qushlar chiroyli sayrayapti.
B) Bizning yurtda har doim mehmon aziz.
C) Nodira uyga vazifalarini qilib bo‘lmadi.
D) Dronlar bugungi kunda harbiy kuch sifatida foydalanilmoqda.

10. Berilgan namunalardan qaysi birida bog‘lovchi vositasida qo‘llanuvchi so‘zlar berilgan?

A) goho, ba’zan, goh
B) biroq, ammo, lekin
C) shuning uchun, agar
D) deb, bo‘lsa, esa

Olimpiada topshiriqlari
O‘zbek tili 11

2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi

11. Matnni o‘qing. “Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanish” ilmiy nazariyasi kim tomonidan takror isbotlanganligini belgilang?

Izlanish, tekshirish va ilmiy tadqiqot natijasida, ba'zan esa tasodifan topilgan yoki yaratilgan ilmiy yangilik kashfiyot hisoblanadi. Insoniyat bosib o'tgan tarixiy jarayonda juda ko'p kashfiyotlar qilingan.

- Jahondagi eng buyuk kashfiyot Beruniyning "Yerning o'z o'qi atrofida aylanishi va sayyoralarning Quyosh atrofida aylanishi" to'g'risidagi ilmiy nazariyasidir.

- Ushbu ilmiy nazariya 500 yildan so'ng Yevropada Kopernik tomonidan takrorlangan. Keyingi olamshumul kashfiyot Nyutonning "Butun olam tortishish qonuni" hisoblanadi. Insoniyat tomonidan "Atom va vodorod bombalarining o'ylab topilishi" mudhish kashfiyot sanaladi. Kashfiyot bilan ixtironi bir-biridan farqlash kerak. Kashfiyot natijasida muayyan qonunlar yaratiladi. Fanda muhim yangiliklarning yuzaga kelishi ixtiro deyiladi. Jahondagi mashhur ixtirolarga Arximedning suv chiqarish vinti, nemis talabasi Motor tomonidan ichki yonuv dvigatelining yaratilishi, Fon Bravun va Korol Yov tomonidan raketalarni yasash va boshqalar kiradi.

A) Nyuton
B) Karol Yov
C) Kopernik
D) Beruniy

12. Matndagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni qaysi so‘z turkumlariga mosligini aniqlang?

Izlanish, tekshirish va ilmiy tadqiqot natijasida, ba'zan esa tasodifan topilgan yoki yaratilgan ilmiy yangilik kashfiyot hisoblanadi. Insoniyat bosib o'tgan tarixiy jarayonda juda ko'p kashfiyotlar qilingan.

- Jahondagi eng buyuk kashfiyot Beruniyning "Yerning o'z o'qi atrofida aylanishi va sayyoralarning Quyosh atrofida aylanishi" to'g'risidagi ilmiy nazariyasidir.

- Ushbu ilmiy nazariya 500 yildan so'ng Yevropada Kopernik tomonidan takrorlangan.

Keyingi olamshumul kashfiyot Nyutonning "Butun olam tortishish qonuni" hisoblanadi. Insoniyat tomonidan "Atom va vodorod bombalarining o'ylab topilishi" mudhish kashfiyot sanaladi. Kashfiyot bilan ixtironi bir-biridan farqlash kerak. Kashfiyot natijasida muayyan qonunlar yaratiladi. Fanda muhim yangiliklarning yuzaga kelishi ixtiro deyiladi. Jahondagi mashhur ixtirolarga Arximedning suv chiqarish vinti, nemis talabasi Motor tomonidan ichki yonuv dvigatelining yaratilishi, Fon Bravun va Korol Yov tomonidan raketalarni yasash va boshqalar kiradi.

A) ot, hol, sifat
B) sifat, ravish, sifat
C) ot, sifat, sifat
D) ot, ravish, hol

13. Bo‘sh qoldirilgan joylarni kerakli qo‘shimchalar bilan to‘ldiring.

Men ko‘p kitob o‘qiy…. Kerak... joylarini eslab qolish uchun kitob… varaqlarini buklab, ma’lumotlarning tagi… chizib qo‘yaman.

A) -man; -li; -ni; -ga.
B) -man; -li; -ning; -ga.
C) -man; -lik, -ni; -dan.
D) -man; -lik; -ning; -ga;

Olimpiada topshiriqlari
O‘zbek tili 11

14. Gapdagi // o‘rnida qanday tinish belgisi bo‘lishi kerak?
Pul bo‘lsa // changalda sho‘rva.
A) vergul
B) nuqtali vergul
C) tire
D) ikki nuqta

15. To‘ldiruvchi quyidagi so‘z turkumlaridan qaysi biri bilan gapda ifodalanib kelmaydi?
A) ot bilan
B) otlashgan sifat bilan
C) sifatdosh bilan
D) yuqoridagi ifodalangan so‘z turkumlarining barchasi bilan ifodalanadi

16. Qavs ichidagi ma’nolar ifodalanishi uchun nuqtalar o‘rniga qaysi so‘z qo‘yilishi lozim?

Ovqatni ... (“ulashmoq”), qamchi ... (“urmoq”), qo‘yni ... (“o‘lchamoq”).

A) bermoq B) uzmoq
C) urmoq D) tortmoq

17. Ushbu gapda holining qaysi turi ishtirok etgan?
Gapiravermagach o‘zim so‘roqqa tutdim.

A) sabab holi
B) payt holi
C) o‘rin holi
D) holat holi

18. Kelishik qo‘shimchalarini qo‘llash bilan bog‘liq xatolik uchraydigan javobni aniqlang.
A) Maqsadlarimizga erishish uchun oldimizda turgan to‘siq va g‘ovlarni yengib o‘tishimiz kerak.

B) Salohiyatimizni yurtimizning xalqaro maydondagi obro‘-e’tibori oshishi uchun safarbar etamiz.
C) Nasimning otasi Qo‘qonnigina emas, butun xonlikning tanilgan kishilaridan edi.
D) Xalqimizning eng noyob fazilatlaridan biri – uning bir tan, bir jon bo‘lib yashashidir.

19. Gapda qaysi bo‘laklar uyushib kelgan?
Bu hududning tabiati, havosi, sharoiti juda yaxshi.
A) aniqlovchi B) kesim
C) hol D) ega

20. Berilgan gapda nechta payt holi ishtirok etgan?
Kecha maktab tomonidan ikki marta majlis o‘kazildi va kelasi o‘quv yili uchun rejalar belgilandi.
A) uchta B) ikkita
C) to‘rtta D) bitta

<u>3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi</u>

21. Quyidagi ega haqidagi ma’lumotlardan nechtasi to‘g‘ri?
Ega harakatning bajaruvchisini bildirib keladi.
Ega kim?, nima?, qayer? so‘roqlariga javob bo‘ladi.
Ega doimo bosh kelishik shaklida bo‘ladi.
Ega egalik va ko‘plik shaklarini qabul qiladi.
A) bittasi
B) ikkitasi
C) uchtasi
D) to‘rttasi

22. Matnni o‘qing. Unga mos nomni aniqlang.

Izlanish, tekshirish va ilmiy tadqiqot natijasida, ba'zan esa tasodifan topilgan yoki yaratilgan ilmiy yangilik kashfiyot hisoblanadi. Insoniyat bosib o'tgan tarixiy jarayonda juda ko'p kashfiyotlar qilingan.

- Jahondagi eng buyuk kashfiyot Beruniyning "Yerning o'z o'qi atrofida aylanishi va sayyoralarning Quyosh atrofida aylanishi" to'g'risidagi ilmiy nazariyasidir.

- Ushbu ilmiy nazariya 500 yildan so'ng Yevropada Kopernik tomonidan takrorlangan.

Keyingi olamshumul kashfiyot Nyutonning "Butun olam tortishish qonuni" hisoblanadi. Insoniyat tomonidan "Atom va vodorod bombalarining o'ylab topilishi" mudhish kashfiyot sanaladi. Kashfiyot bilan ixtironi bir-biridan farqlash kerak. Kashfiyot natijasida muayyan qonunlar yaratiladi. Fanda muhim yangiliklarning yuzaga kelishi ixtiro deyiladi. Jahondagi mashhur ixtirolarga Arximedning suv chiqarish vinti, nemis talabasi Motor tomonidan ichki yonuv dvigatelining yaratilishi, Fon Bravun va Korol Yov tomonidan raketalarni yasash va boshqalar kiradi.

A) Sharq olimlari
B) Kashfiyot va ixtirolar
C) Insoniyat tamadduni
D) Olimlarning ilmiy tadqiqotlar

23. Berilgan gaplardan ot-kesimga misol bo‘la oladigan gaplarni belgilang.
1) Osmonimiz musaffo; 2) Qushlar uchib keldi; 3) Gullar ochildi; 4) Mehmon aziz.

A) 1; 3 B) 2; 4
C) 3; 4 D) 1; 4

24. Quyidagi berilgan gaplarning nechtasida tire to‘g‘ri qo‘yilgan?
1) Ikki karra to‘rt – sakkiz; 2) Vatan – muqaddas; 3) Mening iqrorim – shu; 4) Niyatim – o‘qish; 5) Odob – insonning boyligi.
A) Ikkita o‘rinda to‘g‘ri; uchta o‘rinda noto‘g‘ri.
B) Uchta o‘rinda to‘g‘ri; ikkita o‘rinda noto‘g‘ri.
C) To‘rtta o‘rinda to‘g‘ri; uchta o‘rinda noto‘g‘ri.
D) Berilgan barcha holatlarda tire to‘g‘ri qo‘llangan.

25. Berilgan gapda nechta to‘ldiruvchi qatnashgan va to‘ldiruvchining nechtasi otlashgan sifat bilan ifodalangan?

Yaxshiga qora yuqmas, yomonga el boqmas.

A) Gapda ikkita to‘ldiruvchi bor. Ikkalasi ham otlashgan sifat bilan ifodalangan.
B) Gapda bitta to‘ldiruvchi bor. To‘ldiruvchi otlashgan sifat bilan ifodalanmagan.
C) Gapda ikkita to‘ldiruvchi bor. Bittasi otlashgan sifat bilan ifodalangan.
D) Gapda uchta to‘ldiruvchi bor. Ikkatasi otlashgan sifat bilan ifodalangan.

26. Vositasiz to‘ldiruvchi ishtirok etgan gapni toping.
A) Bu olmani ukam uchun oldim.
B) Yaxshidan bog‘ qolar, yomondan dog‘.
C) Birni kessang, o‘nni ek.
D) Til qilichdan o‘tkir.

27. Berilgan namunlardan qaysi birida faol kirish so‘zlar ishtirok etgan?
A) Usmon Nosir juda qisqa umr ko‘rdi.
B) Afsus, futbol jamoamiz musobaqada yutqizib qo‘ydi.
C) Anvar va men musobaqaga ertaga soat sakkizda boramiz.
D) O‘rta asrlarda Xitoy va Hindiston paxtaning vatani hisoblangan.

28. Qaysi gapda yasama so‘zlar soni nisbatan ko‘proq?
A) Istarali kishining kiyimidagi yamoqlar ham yarashib turadi.
B) Ota-onaning roziligi umrni ziyoda qiladi.
C) Kimki berahmdir — rahm qilinmas,
Kechirmaganlarni kechirmas Olloh.
D) Biror yangilik eshitib qolsangiz, bizni xabardor qiling.

29. O‘zlashtirma gapning kesimi qanday fe’llar bilan ifodalanadi?
A) gapirmoq, so‘zlamoq, demoq
B) so‘ramoq, buyurmoq, aytmoq
C) aytmoq, gapirmoq
D) demoq, aytmoq, gapirmoq

30. Berilgan gapda necha o‘rinda vergul tushib qolgan?

Darhaqiqat bolalarning xulqi odobi yurish-turishi ko‘cha-ko‘yda mahallada o‘zini tutishi do‘stlari orasidagi obro‘-e’tibori oila yumushlariga qo‘shayotgan hissasi bilan doimo qiziqib turish lozim.
A) 8 o‘rinda
B) 6 o‘rinda
C) 7 o‘rinda
D) 5 o‘rinda